

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2022 yil yanvar-aprel oyi)

1. Sanoat mahsuloti

2022-yil yanvar-aprel oylarida respublika korxonalarini tomonidan **154,3** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **105,9** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatining ulushi **81,5** foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **10,4** foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **7,5** foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,6** foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarishning o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,4 %** ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarida ishlab chiqarish **11,7 %** ga, o'sishi bo'ldi.

Shu bilan birga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida **0,7 %** ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarida **2,7 %** ga o'sish kuzatilmoqda.

Ishlab chiqaradigan sanoat hajmining o'zgarishiga avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish korxonalarida (2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **153,0 %**), shuningdek, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish korxonalarida (**167,5 %**) ishlab chiqarish hajmining o'sishi sabab bo'ldi.

Shu bilan birga ishlab chiqaradigan sanoatda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish (2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **64,4 %**), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida (**90,6 %**) hamda koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida (**98,2 %**), ishlab chiqarish hajmining pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida metall rudalarini qazib olish korxonalarida (2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **108,7 %**) ishlab chiqarish hajmining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga xom neft va tabiiy gaz qazib olish korxonalarida (2021 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **97,9 %**) ishlab chiqarish hajmida pasayish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati **125,2** foizni tashkil etdi, shu bilan birga ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushi **32,4** foizga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **33,6** foizni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi esa **66,4** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2021-yilning mos davriga nisbatan **112,6** foizni, nooziq-ovqat tovarlari o'sish sur'ati esa **132,7** foizni tashkil etdi.

2. Inflyatsiya darajasi

2022-yilning yanvar-aprel oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **4,4 %** ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-aprel oylari davomida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha **6,5 %** ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasining umumiy o'sish sur'atiga 2,75 foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.) ta'sir etdi. Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari ushbu davrda **3,5 %** ga qimmatlashib umumiy ko'rsatkichning 1,23 f.d. o'sish sur'atini, xizmatlar esa **2,0 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni qo'shimcha 0,46 f.d. o'sish sur'atini ta'minladi. Yig'ma ko'rsatkichning o'sish sur'atiga ta'siri tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiy o'sish sur'atining 61,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlari hissasiga 27,7 %i va xizmatlar hissasiga 10,4 %i to'g'ri keldi.

Yig'ma INI o'sish sur'ati tarkibida oziq-ovqat inflyatsiyasining ta'siri yaqqol namoyon bo'ldi. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining oshishi hisobiga 2022 yilning yanvar-aprelida INI 2,63 f.d. yuqoriladi. Salmoq ko'rsatkichlarida ushbu tovarlar hissasiga kuzatilayotgan tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sirining 59,3 %i to'g'ri keldi.

2022-yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar o'rtacha **6,6 %**ga qimmatlashdi. Shu bilan birga, ushbu guruh tovarlari orasida meva-sabzavot mahsulotlari yuqori ustunlik bilan yetakchilik qilmoqda. Shunday qilib, joriy yilning dastlabki to'rt oyi davomida mevalar va yong'oqlar narxlari 10,4 %ga, sabzavotlar, ildizmevalilar, plantaynlar va dukkaklilar 22,8 % ga qimmatlashdi.

Boshqa bo'limlar orasida narxlarning sezilarli oshish darajasi dam olish, sport va madaniyat (6,8 %), restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari (6,0 %), uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va uy-joylarni joriy ta'mirlash (4,3 %) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (4,1 %) narxlarida qayd etildi.

3. Qurilish ishlari

2022-yilning yanvar-aprel oylarida 36516,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 106,9 %ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 9449,8 mlrd. so'm yoki 25,9% yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 21566,5 mlrd. so'm yoki 59,1 %, norasmiy sektor sub'ektlari tomonidan 5499,8 mlrd. so'm yoki 15,0% bajarildi.

4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2022-yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **82 323,3** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,6 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2021-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **45,1 %** ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **22,6 %**

ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subektlarining chakana tovar aylanmasi 2021-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **4,2 %** ga ko'paydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **68,7 %** ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **8,7 %** ulush bilan **7 159,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

5. Tashqi savdo aylanmasi

2022-yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **17 164,7** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021 yilga nisbatan **6 514,5** mln. AQSh dollariga yoki **61,2 %** ga ko'paydi. Eksport hajmi **7 081,4** mln. AQSh dollariga (o'tgan yilning mos davriga nisbatan **102,3 %** ga o'sish) va import **10 083,3** mln. AQSh dollariga o'tgan yilning mos davriga nisbatan **41,0 %** ga o'sdi).

Eksport tarkibida ham o'sish kuzatildi, shu jumladan: hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari) yog'lar va mumlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan - **8,3 b.** (7,2 mln. dollargacha)ga, ichimliklar va tamaki **2,5 b.** (13,4 mln. doll.)ga, turli xil tayyor buyumlar **30,2 %** (71,0 mln doll), Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar **80,7%** (130,9 mln.doll)ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar **26,1 b.**(71,0 mln. doll.)ga ko'paydi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (shu jumladan ehtiyot qismlar va butlovchi qismlarga) - **35,2 %** (3 544,7 mln. doll.), sanoat tovarlari **17,9 %** (1 802,4 mln. doll.), kimyo mahsulotlari (va ulardan tayyorlangan mahsulotlar)- **13,8 %** (1 389,4 mln. doll.) to'g'ri keladi.

6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2022-yilning yanvar-aprel oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **101,9** trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **17,2 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlarning **38,8 %** ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 8,6 punkt), transport xizmatlari **15,4 %**ga (o'sishdagi ta'siri 3,4 punkt), savdo xizmatlari **8,5 %** ga (o'sishdagi ta'siri 2,2 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **24,3 %**ga (o'sishdagi ta'siri 1,5 punkt), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **10,8 %** ga (o'sishdagi ta'siri 0,3 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi moliyaviy xizmatlar (**25,4** trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **138,8 %**), savdo xizmatlari (**25,1** trln.so'm, **108,5 %**) va transport xizmatlari (**21,8** trln.so'm, **115,4 %**)ga to'g'ri keladi.

7. Korxonalar va tashkilotlar soni

2022-yil 1-may holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) **548,7** mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 481,1 mingta). O'tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi **9,4** foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 10,2 foiz) tashkil etdi. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng yuqori o'sishi Samarqand (19,2 foiz), Qashqadaryo (12,2 foiz), Xorazm (12,2 foiz), Navoiy (11,7 foiz), Farg'ona (10,1 foiz), Andijon (9,2 foiz), Surxondaryo (9,1 foiz), Jizzax (8,6 foiz) viloyatlari va Toshkent shahrida (7,7 foiz) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining eng yuqori o'sishi savdo (16,0 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (12,9 foiz), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (9,5 foiz), axborot va aloqa (8,6 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (8,1 foiz), tashish va saqlash (6,4 foiz), sanoat (5,9 foiz) hamda qurilish (4,8 foiz) faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

2022-yil yanvar-aprel oyida respublikada **34,2** mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **32,8** mingtani tashkil etdi.

2022-yil 1-may holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni **13 877** tani tashkil etdi. O'tgan yil bilan solishtirganda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 11,1 % ni yoki 1 390 tani tashkil etdi. Ulardan 6 117 tasi qo'shma korxonalarni va 7 760 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.